

Ingliz Tilidagi Leksik Dubletlarning Lingvistik Tadqiqi

Xodjayeva Dilafruz Izzatullayevna

Buxoro Davlat Universiteti Falsafa fanlari nomzodi, Tabiiy fanlarda chet tili kafedrası mudirasi

Yunusova Maqsadjon Gaybullayevna

Buxoro Davlat Universiteti, Xorijiy tillar fakulteti, Lingvika yo'nalishi II bosqich magistranti

ANNOTATSIYA: Quyida keltirilayotgan tezisning bosh vazifasi qilib ingliz tilidagi leksik dubletlar, ularning paydo bo'lish tarixi, boshqa manba tillardan qabul qilinishi, lug'at tarkibida sodir qilgan jarayonlar va o'zgarishlarning kechishi va ularning etimologik hamda ularning tilda qo'llanilish xususiyatlari belgilangan.

Kalit so'zlar: leksik dublet, etimologik dublet, etimologik juftlik, absolyut sinonimiya, so'z o'zlashtirilishi, etimon, ma'no, talaffuz, semantik variant.

Tilning lug'at boyligi turli davrlarda turli xil yo'llar bilan boyib boradi. Shunday usullardan bir bu boshqa tillardan so'z o'zlashtirilishi. Ingliz tili ham turli davrlarda har xil xalq va davlatlarning bosqini, ta'siri oqibatida so'z o'zlashtirilishi tufayli lug'at boyligi kengaygan tillardandir. Bir so'z turli shakllarda har xil davrlarda turli tillar orqali kirib kelishi mumkin. Ba'zi so'zlar shakl va ma'no uyg'unligini saqlab qolishi va ba'zilari esa yo'qotishi mumkin. Bunday so'zlar esa tilshunoslikda leksik dubletlar deb ataladi. Ushbu maqolada ingliz tiliga boshqa tillardan qabul qilingan leksik dubletlarning ingliz tiliga ta'siri va moslashuvi haqida so'z boradi.

Leksik dubletlar eng qadimiy va keng qamrovli leksiko-semantik kategoriyalardan biri hisoblanadi. Leksik dubletlar deb, bir tilda ikki yoki undan ortiq umumiy kelib chiqish tarixiga ega bo'lgan, ayrim paytlarda qayta o'zlashtirish natijasida til lug'at boyligi tarkibiga kirgan, semantik jihatdan bir xil yoki turli davrlarda ma'no jihatdan farqlanishlarga uchragan va talaffuzi bir-biriga yaqin bo'lgan so'z juftliklariga aytiladi. Leksik dubletlarning eng ko'p tarqalgan turi bu etimologik dubletlar hisoblanadi.

Leksik dubletlar umumiy tilshunoslik, germanistika, rus tilshunosligida va turkologiyada keng miqyosda ko'pgina olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ularga misol qilib, ingliz tilshunosligida XIX asrning o'rtalarida chuqur izlanishlar olib borgan tilshunoslardan W.W.Skeat (1882), O.F.Emerson (1915); R. Barber (R.Barbier, 1922); A.Bau (A.Baugh, 1957); D.Bilber (1988); A.J.Bliss (1966); J.L. Bruk (G.L.Brook, 1958); A.Kunin (A.Coonin, 1940) va yana ko'pgina olimlarni keltirishimiz mumkin.

Ingliz tilidagi so'zlarning etimologik jihatdan o'rganilishi 1882yilga V.V.Skitga borib taqaladi. Skitning shu yili chop etilgan "Qisqacha etimologik lug'at" olim nomli ishida ingliz tilidagi so'zlarning kelib chiqish tarixini, ya'ni bir so'z qaysi tildan qanday shaklda va qachon ingliz tiliga kirib kelishini ochib beradi.

Rus tilidagi leksik dubletlar masalasini o'rganish borasida V.V.Vinogradov (1969); M.P.Alekseeva (1988); V.G.Gak (2000); A.G.Preobrajenskiy (1959), M.O.Nikitina (1985), E.A.Zusmanovskaya (1998) va boshqalarning ishlarini sanab o'tish mumkin.

O'zbek tilidagi leksik dubletlar masalasi Sh.Raxmatullayev (2006), A.Hojiyev (1981), R.Qo'ng'urov (1980), E.Begmatov (1985), M.Mirtojiyev (2010), I.Qo'chqortoyev (1977), B.Daniyarov (2020) va boshqalarning asarlarida u yoki bu darajadagi tafsilotlari yoritilgan. O.Yusupov (2020) esa ingliz va o'zbek tillaridagi dubletlarning funksional-semantik va lingvokulturologik tadqiqini olib borgan.

Azim Hojiyev "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" da dubletlar fransuz tilidagi "Doublet - double" – "ikkilik" so'zidan olingan bo'lib, bir xil teng semantik tarkibga ega bo'lgan til birliklari ekanligini ta'kidlaydi¹.

Sh.Raxmatullaevning fikricha: "Agar ikki leksema (leksosemema) har jihatdan teng bo'lsa, o'zaro farqlovchi belgiga ega bo'lmasa, leksik dubletlar deyiladi". Olim bu hodisani absolyut sinonimiya deb nomlash ham mavjud ekanligini ko'rsatib o'tadi².

O'zbek tilining izohli lug'atida dubletlarga quyidagicha izoh berilgan. "Doublet (fr. *Doublet* < *double*– qo'shaloq, ikkilangan, ikki hissa) 1. Biror narsaning ikkinchi nusxasi; ikkita bir xil, teng qimmatli narsaning biri. 2. Qimmatbaho, nodir toshlar (buyumlar)ning yasama, soxta nusxasi. 3. Tilda ma'nosiga ko'ra aynan teng keluvchi va biri ikkinchisi o'rniga almashinib qo'llanilishi mumkin bo'lgan so'z va boshqa xil lisoniy birlik. Biroq, ilmiy matnda dubletlarning uch-to'rttasini birdaniga berishni me'yoriy holat deb qarash kerak emas. Tilda sinonim, dublet va variantlarning qavatlanishi yoki takrorlanishi ortiqcha informatsiyani vujudga keltiradi." [O'TIL 1-жилд., 2006: 654-655]

O.S.Axmanova o'zining "Словарь лингвистических терминов" nomli lug'atida dubletga quyidagicha ta'rif beradi: dublet — ma'nosi va talaffuzi bir-biriga yaqin bo'lgan, umumiy o'zakdan kelib chiqqan va turli paytda o'zlashtirilganligi uchun fonetik va imloda o'zgarishlarni boshdan kechiradigan juftliklardir. Shuning uchun ayrimlar bu so'zlarni etimologik dubletlar deb ataydilar: Русск. *волесть* — *власть*, *сторона* — *страна*; англ. *hostel* — *hotel* — *hospital*; фр *chose* — *cause*, *naïf* — *naïf*.³

¹ Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изохли луғати. –Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2002 – Б. 37.

² Рахматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. –Т.: Университет, 2006. - Б. 81.

³ Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. –М.: Советская энциклопедия, 1969. - С. 144.

Leksik dubletlar, odatda, soʻzda sodir boʻladigan fonetik va semantik oʻzgarishlar natijasida paydo boʻladi. Soʻzning shakli va maʼnosida kuzatilayotgan bu oʻzgarishlar natijasida biz bu yerda leksik va semantik variantlar yoki omonim soʻzlarda kuzatiladigan holatlarni koʻramiz. Lekin boshqa holatlardan bularning farqi shundaki, leksik dubletlarda birlamchi etimonni va unda sodir boʻlgan fonetik, semantik izlarni biz tiklash imkoniyatiga egamiz, chunki keyinchalik rivojlangan bir necha maʼnodan ayrimlari oʻq-maʼno sifatida asosiy maʼnoni baribir saqlagan boʻladi. Leksik dubletlarning paydo boʻlishi va rivojlanishi masalalari bilan jahonning turli tillari misolida juda koʻp olimlar shugʻullangan boʻlsa-da, haligacha koʻplab muammolar yechilmay qolmoqda.

Leksik dubletlar paydo boʻlishi jarayonida ishtirokchi tillarning maqomi uch xil boʻladi: manba til (donor til); vositachi til (medium til); qabul qiluvchi til (retseptient til).

Channel - canal soʻzlarining etimologik juftligini koʻrib chiqadigan boʻlsak, ikkala soʻz ham eski fransuz **chanel, chenel** soʻzlardan kelib chiqqan boʻlib, ammo bu soʻzlarning oʻzi ham lotin tilidagi **canālis** "trubka, kanal" soʻzlaridan oʻzlashtirilgan. Yaʼni ingliz tilidagi **channel – canal** soʻzlari fransuz tildan oʻzlashtirilgan boʻlib, ikkala tildagi "kanal" maʼnosini beruvchi soʻzlarning etimologik kelib chiqishi lotin tiliga borib taqaladi. **Channel** soʻzi ingliz tilida XIII asrda paydo boʻlgan boʻlib, "oqayotgan suv yoʻlagi" maʼnosida qoʻllanilgan, Keyinchalik bu soʻz yangi maʼnolarga ega boʻldi: XIV asrda "yoʻnalish", XVII asrda esa "truba" maʼnolarida qoʻllanilgan. XV asrda ingliz tilida xuddi shu maʼnoda yaʼni, "suyuqlikni yetkazib beradigan trubka" manosi va "channel" soʻziga shakl jihatdan yaqin boʻlgan "canal" shaklidagi soʻz paydo boʻldi.

Zamonaviy ingliz tilida bu soʻz turli maʼnolarda qoʻllaniladi: "channel" soʻzi "boʻgʻoz, kanal, suv oqimi" maʼnolarida, yaʼni tabiiy suv oqimi maʼnosida; ayni shu damda "canal" soʻzi esa birozgina tor maʼnoda, yaʼnikim, "sunʼiy kanal, suv oʻtadigan joy" maʼnolarida qoʻllaniladi⁴.

Lotin tilidan "**quies, quietus**" soʻzlari ingliz tiliga toʻgʻrida-toʻgʻri qabul qilinganda "tinchlik, dam olish" maʼnolari bilan quiet [ˈkwaɪət] — "tinch" shaklida qabul qilingan. Xuddi shu soʻz fransuz tilidan qabul qilinganda esa quiet [ˈkwaɪət] — "juda, umuman" maʼno va shakllari bilan oʻzlashtirilgan⁵.

"Journal" ingliz tiliga XIV asrda qadimgi fransuz tilidagi sifat soʻz turkumiga oid **jurnal, jornal** soʻzlaridan oʻzlashtirilgan, ammo bu soʻzning ham kelib chiqishini koʻrib chiqadigan boʻlsak, tub ildizi lotin tilidagi "diurnālis - kunduzgi - дневной"

⁴ Антрушина, Г. Б. Лексикология английского языка : учеб. пособие для студентов / Г. Б. Антрушина, О. В. Афанасьева, Н. Н. Морозова. — 2-е изд. — М. : Дрофа, 2000. — 288 с.

⁵ Harper, D. The Online Etymology Dictionary / D. Harper // Books & Reference / Reference [Electronic resource]. — 2012. — Mode of access : <http://www.etymonline.com/>. — Date of access : 15.11.2013.

so'ziga borib taqaladi. Oradan bir asr o'tgach ingliz tilida "diurnal - kunduzgi" sifati paydo bo'ladi, bu esa to'g'ridan-to'g'ri lotincha diurnālis so'zidan qabul qilinadi.

Zamonaviy ingliz tilida ot so'z turkumiga oid "jurnal, gazeta" ma'nosini beruvchi "journal" so'zi mavjud. Bundan tashqari xuddi shu so'z shu shaklni saqlab qolgan holda "kundalik" sifat ma'nosida ham qo'llaniladi⁶.

Hozirgi kunda ingliz tilida mavjud ko'pgina dubletlarning kelib chiqishi roman tillarga borib taqaladi. Shu bilan birgalikda anglo-skandinav dubletlar (disk - disc; shirt - skirt) va sof inglizcha dubletlar ham mavjud (shade и shadow; scale и shell)⁷.

Ko'pgina etimologik dubletlarning tarixiy umumiyligi yaqqol ko'zga tashlanmasligi, shakl va ma'no jihatdan bir-biridan uzoqlashib ketgan bo'lishi mumkin. Bunday dubletlarning yakka o'zakdan kelib chiqishini faqatgina tilni tarixiy jifatdan o'rganishgina ochib bera oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. D.I.Khodjaeva. Different viewpoints on lexicography and dictionary types//ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal, Vol. 11, Issue 2. – P. 1273-1276.
2. Khodjayeva Dilafruz Izatilloevna. LEXICOGRAPHIC ANALYSIS OF LINGUISTIC TERMS (ON THE BASIS OF MATERIALS OF EXPLANATORY DICTIONARIES OF THE ENGLISH, RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES) // International Journal of Psychosocial Rehabilitation. Vol. 24, Issue 06, 2020, ISSN: 1475-7192. P. 603-612 .
3. Saidova, M. U. (2019). Lexical Stylistic Devices and Literary Terms of Figurative Language. International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN, 2277-3878. <https://www.ijrte.org/wp-content/uploads/papers/v8i3S/C10541083S19.pdf>.
4. Saidova, Muhayyo (2021) "SEMANTIC ANALYSIS OF LITERARY TERMS BY LITERARY TYPES IN "THE CONCISE OXFORD DICTIONARY OF LITERATURE TERMS"," Philology Matters: Vol. 2021: Iss. 1, Article 11. DOI: 10.36078/987654486 Available at: <https://uzjournals.edu.uz/philolm/vol2021/iss1/11>.
5. Антрушина, Г. Б. Лексикология английского языка: учеб. пособие для студентов / Г. Б. Антрушина, О. В. Афанасьева, Н. Н. Морозова. — 2-е изд. — М.: Дрофа, 2000.

⁶ Кочурова, Ю. Н. Латино-французские этимологические дублеты в английском языке / Ю. Н. Кочурова // Альманах современной науки и образования. — 2009. — № 2 (21) — Ч. 1. — С. 65–67.

⁷ Антрушина, Г. Б. Лексикология английского языка : учеб. пособие для студентов / Г. Б. Антрушина, О. В. Афанасьева, Н. Н. Морозова. — 2-е изд. — М. : Дрофа, 2000. — 288 с. — С. 68

6. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. –М.: Советская энциклопедия, 1969.
7. Кочурова, Ю. Н. Латино-французские этимологические дублиеты в английском языке / Ю. Н. Кочурова // Альманах современной науки и образования. — 2009. — № 2 (21) — Ч. 1.
8. Расулов, З. И. (2017). Особенности моделирования эллиптических предложений в связи с позиционными звеньями. Тил бирликларини қиёсий-типологик ва лингвомаданиятшунослик йўналишларида тадқиқи ва уларнинг тилларни ўқитишдаги ўрни. Илмий мақолалар тўплами. Қ, 2, 54-56.
9. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=BMFYyZIAAAAJ&citation_for_view=BMFYyZIAAAAJ:YsMSGLbcyi4C
10. Рахматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. –Т.: Университет, 2006. -
11. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2002